

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 3



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-3>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамад

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамад

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umaroglu

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarchodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Nurmamatova Zarifa Abdiraup qizi IKKI TILDA MULOQOT QILADIGAN BOLALARNING NUTQIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	5
2. O‘tamuradova Malohat ALISHER NAVOIY MEROSI NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARIDA.....	9
3. Петросьянц Эрнст Ашотович ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, МОТИВИРОВАННЫЕ ИМЕНАМИ СОБСТВЕННЫМИ ПОЛИТИКОВ В АНГЛОЯЗЫЧНОМ МЕДИАДИСКУРСЕ.....	13
4. Jo‘raqulova Mushtariy Abdumalik qizi O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SPORT TERMINLARINING YASALISH PARALLELIGI TADQIQI.....	23
5. Gulamova Malika Yakubovna O‘ZBEK VA ITALYAN TILLARIDA NUTQIY STRATEGIYALAR VA UNDASH USULLARI.....	27
6. Achilova Ozoda Farxodovna YAPON TILIDAGI MAQOLLARNI O‘ZBEK TILIDA MUQOBILLASHTIRISHDA TAYANILADIGAN OMILLAR.....	32
7. Nematillayevna Zubaydova PROBLEMS RELATED TO THE COMPARATIVE ANALYSIS OF LANGUAGES IN THE DEVELOPMENT OF LINGUISTICS.....	36
8. Насруллаева Тозагуль Сухробовна ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕВОДА В РОМАНЕ ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА «ФИНАНСИСТ».....	39
9. Mo‘minova Ma’suma G‘olib qizi SUV LEKSEMASI TAHLILIGA OID QIYOSIY-TARIXIY, SISTEM-STRUKTUR YO‘NALISHDAGI TADQIQOTLAR.....	43
10. Xamrayeva Zebiniso Xaydarovna MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALARNING IYERARXIK VA FUNKSIONAL TIZIM DOIRASIDAGI DERIVATSION VA SEMANTIK TAHLILI.....	53
11. Malika Solieva PHONOLOGY AND CULTURE: LINGUISTIC ASPECTS OF INTERACTION.....	58
12. Kodirova Shaxnoza Abduraxmonovna “MIMIKA, JEST VA BOSH HARAKATLARI KABI NOVERBAL MULOQOTNING QIYOSIY, LINGVOMADANIY TAHLILI.” (YAPONIYA, O‘ZBEKISTON VA BOSHQA MAMLAKATLAR MISOLIDA)...	61
13. Shamuradova Naima Muxtarovna DISCOURSIIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS EXPRESSING VERBAL POLITENESS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	66
14. Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li STENDAL IJODIDA ROMANTIZM VA REALIZMNING TA’SIRI (“Qizil va qora” hamda “Parma monastiri” asarlari misolida).....	70
15. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTINI S.MOEM ISHLARIDA REPREZENTATSIYASI XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI.....	74
16. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA’MINOTI.....	79
17. Davlatova Hulkaroy Uktamovna TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI: BOLALAR NUTQI MISOLIDA.....	84

18. ЗулфANOVA Нигина Нуриддиновна СТРУКТУРА ФРЕЙМА «ТВОРЧЕСТВО» ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РОМАНА «А.МЁРДОК «THE BLACK PRINCE».....	93
19. Turakulova Sitora Fazlidinovna JANUBIY KOREYALIK YOZUVCHI KON JIYONNING “BIZNING BAXTLI DAMLARIMIZ” ROMANIDAGI OBRAZLAR RUHIYATI TASVIRI.....	98
20. Nurimbetova Dilnaz Yeshmurotovna "MILLIY TAOM" REALIYALARI VA ULARNING TARIXIY KONTEKSTI.....	104
21. Erkinova Ruxshona O'tkirona, Kurbonova Gulnoza Irkinovna YAPON VA JAHON ILMIY-FANTASTIKA (SF) ADABIYOTI QIYOSIY TAHLILI.....	109
22. Qayimova Maftuna Tursunovna OILAVIY MUHITDA QIZLARINING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA).....	114
23. Xasanova Mavlyuda Batiyralievna ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДИСКУРСА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	117
24. Iskandarova Aybibi Raximbayevna “QIYOMAT” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING XOSLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	125
25. Barno Abdusattarovna Mirsharipova PAK VANSO ASARLARINING RUS TILIGA TARJIMALARIGA DOIR.....	134
26. Muslimova Shahnoza Sunnatovna YOM SANSOP HIKOYALARIDA HAYOT VA O'LIMNING YANGI IFODASI.....	139
27. Anorqulov Sanjar Iskandarovich TILSHUNOSLIKDA TOPONIMIK KONSEPT VA UNING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI.....	144
28. Karimboyeva Charos Ikrom qizi SIROJIDDIN SAYYID VA BAXTIYOR GENJEMUROD SHE'RIYATIDA TUSH OBRAZI.....	148
29. Mirvaliyeva Dildora Anvarovna DAVLAT TILIDAGI AXBOROT USLUBI MATNLARINING ELEKTRON TA'MINOTI .HUJATCHILIKDA IMLO VA TINISH BELGILARI.....	153
30. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Abdullayeva Nasima Murodullayevna O'ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSI UCHUN DIALEKTAL SUBKORPUSINI YARATISH MASALALARI.....	157
31. Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich ASPEKTUAL SEMANTIKANING KOGNITIV MAZMUNI.....	166
32. Shamaxmudova Aziza Furkatovna MILLIY XARAKTER VA XUSHMUOMALILIK: ISPAN TIL SOHIBLARI TAFAKKURIDA HURMAT TAMOIYILLARI.....	170
33. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna AGENTIV SINTAKSEMALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	176



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi

O'zbekiston Milliy universiteti

Kompyuter lingvistikasi va

amaliy tilshunoslik kafedrasini mudiri,

filologiya fanlari doktori, professor,

<https://orcid.org/0000-0001-9195-5723>

Abdullayeva Nasima Murodullayevna

O'zbekiston Milliy universiteti,

Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi 2-kurs magistranti

nasimaabdulla35@gmail.com

ORCID: 0009-0000-8285-9369

O'ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSI UCHUN DIALEKTAL SUBKORPUSINI YARATISH MASALALARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.18734109>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada dialektal korpuslarning zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni, turkiy tillarda yaratilgan dialektologik korpuslar bo'yicha olib borilayotgan izlanishlar tadqiqi va uning bugungi kundagi dolzarbligi hamda o'zbek tilida dialektal korpuslar bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan ishlar, shuningdek, dialektal korpus yaratish, uni shakllantirishning nazariy-metodologik tamoyillari yoritiladi. Maqolada Qarshi shahar shevasining ayrim fonetik va leksik xususiyatlari namunaviy material sifatida tahlil qilinib, ularni korpusga kiritish jarayonining asosiy yondashuvlari nazariy jihatdan asoslanilgan.

Kalit so'zlar: turkiy tillar, dialektal korpus, sheva, Qarshi shahar shevasi, metodologiya, teg, transkripsiya.

Nilufar Abdurakhmonova

Head of the Department of Computational Linguistics

and Applied Linguistics, Doctor of Philological Sciences,

Professor, National University of Uzbekistan

<https://orcid.org/0000-0001-9195-5723>

Nasima Abdullayeva

2nd-year Master's student, Computational Linguistics,

National University of Uzbekistan

nasimaabdulla35@gmail.com

ORCID: 0009-0000-8285-9369

ISSUES OF CREATING A DIALECTAL SUBCORPUS FOR THE ELECTRONIC CORPUS OF THE UZBEK LANGUAGE

ABSTRACT

This article examines the role of dialectal corpora in modern linguistics, the relevance of current research on dialectological corpora developed for Turkic languages, and the ongoing work related to the creation of dialectal corpora in the Uzbek language. It also outlines the theoretical and methodological principles of constructing and structuring such corpora. The article analyzes selected phonetic and lexical features of the Qarshi urban dialect as sample material and theoretically substantiates the main approaches to incorporating these features into the corpus.

Keywords: Turkic languages, dialectal corpus, dialectology, Qarshi city dialect, methodology, tagging, transcription.

Нилуфар Абдурахмонова

Заведующая кафедрой компьютерной и прикладной лингвистики, доктор филологических наук, профессор, Национальный университет Узбекистана
<https://orcid.org/0000-0001-9195-5723>

Насима Абдуллаева

Магистрант 2-го курса направления «Компьютерная лингвистика», Национальный университет Узбекистана
nasimaabdulla35@gmail.com
ORCID: 0009-0000-8285-9369

ПРОБЛЕМЫ СОЗДАНИЯ ДИАЛЕКТНОГО СУБКОРПУСА ДЛЯ ЭЛЕКТРОННОГО КОРПУСА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается роль диалектных корпусов в современной лингвистике, актуальность исследований, проводимых по созданию диалектологических корпусов тюркских языков, а также работы, осуществляемые по формированию диалектных корпусов узбекского языка. Освещаются теоретико-методологические принципы создания и структурирования таких корпусов. В качестве примерного материала анализируются отдельные фонетические и лексические особенности каршинского городского говора, а основные подходы к их включению в корпус получают теоретическое обоснование.

Ключевые слова: тюркские языки, диалектный корпус, диалекты, Каршинский городской говор, методология, разметка, транскрипция.

Kirish. Bugungi kunda amaliy tilshunoslikda u yoki bu tadqiqotlarga korpus asosida yondashuv rivojlandi. Jahon miqyosida tilshunoslikning kompyuter dasturlari va texnik imkoniyatlari yordamida tabiiy tilni qayta ishlash ma'lum tilning rivojiga, uning jahon miqyosidagi o'rnining shakllanishiga va shu tildagi zamonaviy dasturlar ko'lamining kengayishiga zamin hozirlamoqda. Tilning mavjud imkoniyatlarini chuqur o'rgangan holda grammatik qoliplarni belgilash, bu orqali tilning grammatik muammolarini yechish va lingvistik annotatsiyalangan elektron korpuslar yordamida avtomatik tarjima tizimlari, tezaurus, elektron lug'at materiallarini tashkil qilish hamda avtomatik nutq tanish texnologiyalarini ham joriy qilish korpus tilshunosligining asosiy vazifalari hisoblanmoqda. "Tilning pragmatik va kognitiv tasviri aks etgan og'zaki va yozma matnlar majmuasi (korpus) ontologik bilimlar bazasi, semantik va neyro to'rlar va sun'iy intellekt texnologiyasi hamda lingvoprotsessor uchun tilning lisoniy modellari va nutqiy aktlarni o'rganishda katta rol o'ynaydi" [N.Z. Abduraxmonova, 2023].

Shevalar adabiy tilni boyituvchi asosiy manba ekanini inobatga olsak, tabiiy tilni qayta ishlash, uni kompyuter texnologiyalari asosida tadqiq etilishida dialektal bazalar yaratish muhimligi oydinlashadi. Bu borada jahon miqyosida bir qancha ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Katta resursli tillar doirasida sheva korpuslari dialektologik tadqiqotlar doirasida bir qancha yillar avval boshangan

va bir qator yutuqlarga erishilgan. Xususan ingliz dialekt korpuslari (<http://www.helsinki.fi/varieng/CoRD/corpora/Dialects/fieldwork.html>, <https://freidok.uni-freiburg.de/proj/1>, https://en.wikipedia.org/wiki/Dictionary_of_American_Regional_English), Almanca Dialekt atlas (Digitaler Wenker-Atlas – DiWA), rus dialekt korpuslari (<https://ruscorpora.ru/en/corpus/dialect?search=CgQyAggIMAE>, <https://link.springer.com/article/10.1007/s11185-023-09277-w>, <https://cyberleninka.ru/article/n/kuban-cossack-balachka-diachronic-and-linguocultural-aspects>), Norvegiya shevalar korpuslari (NDC, <http://www.tekstlab.uio.no/nota/scandiasyn/>), Xitoy mandarin shevalari korpusi (CALLFRIEND <https://catalog.ldc.upenn.edu/LDC/96S55>) kabi.

Adabiyotlar tahlili. Dialektal tadqiqotlarning bugungi kundagi ahamiyati kompyuter lingvistikasi sohasining mutaxassislari tomonidan ham e’tirof etilmoqda va mavjud muammolari tahlil etilmoqda. Korpusga asoslangan dialektologiyaga oid muammolar alohida tadqiqot predmeti sifatida qaralmoqda (Andervald L., and Szmrecsanyi B, *Corpus linguistics and dialectology*, 2009). “Korpusga asoslangan yondashuvlar so’nggi yillarda kvantitativ bo’lmagan dialektologiyada keng tarqalmoqda. Odatda transkripsiya qilingan yarim yo’naltirilgan intervyulardan iborat bo’lgan dialekt korpuslari an’anaviy dialektik atlaslariga muqobil qaralmoqda. Atlaslardan farqli o’laroq, ular til xususiyatlari qo’llanilgan kontekst va qo’lanish ko’lami haqida ko’proq ma’lumot bersa-da, o’z muammolari bilan birga keladi. Muammolardan biri shundaki, to’plangan xususiyatlarning chastotalari odatda dialektometrik tahlil uchun yetarli darajada taqqoslanadigan bo’lishi uchun normallashtirilishi kerak” [Wolk & Szmrecsanyi, 2018]. Bunday normallashtirilgan va lingvistik annotatsiyalangan korpuslar an’anaviy korpus metodologiyasiga asoslanadi va bugungi kunda jahondagi deyarli barcha dialektal korpuslar uchun amal qiladi. Biroq hozirda sheva korpuslari uchun bir qancha yangi tahlil usullari ham joriy etilmoqda (O. Kuparinen, Y. Scherrer, 2024).

Turkiy tillar doirasida ham dialektologik korpus tashkil qilish masalalari bugungi axborotlashgan zamonda o’z ahamiyatini tobora orttirmoqda va zamonaviy turkiy tilshunoslikda nisbatan yangi yo’nalishdir. Turkiy dialektlar korpuslarini yaratishning ahamiyati va dolzarbligi shundaki, bunday loyihalar globallashtirish va assimilyatsiya kuchli ta’sir ko’rsatayotgan autentik tillarni saqlab qolishga yordam beradi. Chunki kam resursli va funksional jihatdan cheklangan tabiiy tillarni saqlashda korpusga asoslangan yondashuv ahamiyatlidir. Milliy til va shevalar uchun korpus tuzishning asosiy muammolari, odatda, quyidagilar hisoblanadi: 1) matn namunalarini yig’ish va ma’lumotlar bazasini tuzish; 2) korpus to’plamida reprezentativlik va mutanosiblikni ta’minlash; 3) teglash jarayonini avtomatlashtirish. Sheva matnlarini grammatik izohlash muammosi, ayniqsa, turkiy tillar kabi boy fleksiya tillar uchun dolzarbdir. Morfologik xususiyatlardan tashqari, sheva matnlari muhim leksik va sintaktik o’zgaruvchanlikni ko’rsatadi. Bunday o’zgaruvchanlik ma’lum bir sheva uchun yagona teglar to’plamini ishlab chiqishga to’sqinlik qiladi. “Turkiy tillar va shevalar korpuslari uchun grammatik annotatsiyaning asosiy muammolaridan biri o’zgaruvchanlik xususiyatlarini aniqlash va tillar oilasi uchun standart sifatida yaroqli bo’lgan tavsiflashning optimal meta-tilini yaratishdir” [B. Khakimov, F. Salimov, D. Ramazanva, 2015]. 2014-yilda Qozon shahrida bo’lib o’tgan Uniturk seminarida bu muammo birinchi marta turkiy tillar uchun muhokama qilindi va maxsus deklaratsiya qabul qilinadi (Xakimov, Galieva va Gatiatullin, 2014).

Zamonaviy turkiyshunoslikda dialektal korpuslarni yaratish amaliy va kompyuter lingvistikasi, qiyosiy va tarixiy turkologiya, tipologiya, tarix va gumanitar fanlarning boshqa sohalarini boyitishga xizmat qilib kelmoqda. Turkiy tillar doirasida tilshunoslikning turli maqsadlarida keng foydalanishga mo’ljallangan bir qancha korpuslar mavjud bo’lib, ulardan biri Turkiya milliy korpusidir (Aksan va boshqalar, 2012). Mashhur loyihalar orasida qozoq (Mahambetov va boshq., 2013), tatar (Suleymanov va boshq., 2013), uyg’ur (Aybaydulla va Kim-Teng Lua, 2002), boshqird (Buskunbayeva va Sirazitdinov, 2011), xakas (Sheymovich, 2011) va tuva (Salchak, 2012) tillari korpuslarini ham sanab o’tish mumkin. Turkiy tillarning yozma adabiy korpuslari faol rivojlanayotgan bo’lsa-da, sheva korpuslarini yaratishda hali dastlabki qadamlar qo’yilmoqda. So’nggi yillarda shevashunoslar tomonidan ko’plab matn namunalari to’plangan, ammo ularning aksariyati to’laligicha raqamlashtirilmagan. Turkiy tillarda shakllangan dialekt korpuslar yuzasidan tatar tilining Mishar dialektini misol qila olamiz. Bu dialekt va uning korpusga asoslangan

yondashuvi yuzasidan bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan va hozirda Mishar korpusi Tatariston Fanlar akademiyasining Amaliy semiotika instituti tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan Tatar shevalari elektron atlasining ajralmas qismi sifatida onlayn tarzda foydalanish uchun mo'ljallangan.

Mishar dialekti matnlari 2012-2013-yillarda Qozon federal universiteti, Tatariston Fanlar akademiyasi va Moskva davlat universitetidan iborat tadqiqotchilar jamoasi tomonidan to'plangan bo'lib, 1950-yildan to hozirgi kungacha yozib olingan matnlarni o'z ichiga oladi va taxminan 50000 ta so'zdan iborat. Korpus ma'lumotlar bazasi PostgreSQL platformasida ishlab chiqilgan va dialektal matnlari morfologik jihatdan izohlanib, maxsus metateglar to'plamiga muvofiq tasniflangan. Matnlarning bir qismi ingliz tiliga tarjima qilingan. Korpus metama'lumoti batafsil dialektologik teg to'plami bilan ifodalangan bo'lib, u sheva, yozib olish joyi, vaqti, axborot beruvchi hamda matnning mavzu va janr xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Sheva matnlari turli manbalardan tashkil topgan bo'lib, dala safari yozuvlari, folklor matnlari, nashr etilgan tadqiqotlarni ham o'z ichiga oladi va turli xil integratsiyalashgan resurslardan tarkib topgan. Bu o'z navbatida tatar shevalarining vakillik korpuslarini tuzish imkonini yaratgan. Tadqiqotchilar ilgari chop etilgan matnlar dialektologik transkripsiya belgilar to'plamiga moslashtirilgan holda OCR texnologiyasi yordamida skanerlanib, tanib olinganini aytadilar. Grammatik izohlar standart tatar tili modeliga asoslangan va odatda qo'llanadigan tipologik atamalar hamda glossalash qoidalariga mos keladi. "Mishar shevasi tarkibidagi turli shevalarda grammatik fleksiyaning o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy ko'rish mumkin. Yana bir maxsus manba dialektizmlarning korpusga asoslangan lug'atidir. Unda dialektizm uchraydigan matnlar va gaplar haqidagi ma'lumotlar mavjud. Lug'at dialektizmlarning standart ekvivalentlari, ularning fonetik variantlari va boshqa ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu lug'at korpus bilan bog'langan, shuning uchun lug'atdagi so'zni tanlab, korpusdan misollarni oson topish mumkin." [B. Khakimov, A. Galiyeva, A. Gatiatullin, 2015]

Turkiyada so'zlashuvchi asosiy turk tili va shimoliy Kiprda so'zlashuvchi turk kipr lahjalari orasidagi grammatik tahlillar uchun ham korpusga asoslangan til aloqasi tizimidan foydalanilgan tadqiqotlar mavjud [E. E. Işık, C.S. Simsek, 2019]. Korpus Shimoliy Kipr va Turkiyadagi 80 nafar ma'ruzachi bilan og'zaki suhbatlardan iborat bo'lib, 18 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan notiqning og'zaki nutqidagi bevosita va bilvosita tajriba ifodalarini 50 va undan katta yoshdagi notiqning ifodalari bilan taqqoslanadi. Etalon model sifatida asosiy turk tilida so'zlangan ikkita taqqoslanadigan nutq subkorpusidan foydalanilgan va evidensiallik bo'yicha real nutq ma'lumotlarini sifatli va miqdoriy statistik tahlil qilish imkonini beruvchi korpusga asoslangan metodologiya qabul qilingan. Olingan natijalarda "shov-shuvli" voqealar haqida xabar berishda ikkala dialekt bir-biridan katta farq qilishi kuzatiladi. Asosiy turk tilida so'zlashuvchilar mish-mish hodisalarini xabar qilish uchun -miş morfemasini qo'llasa, kipr turk lahjasida so'zlashuvchilar xuddi shu vaziyatlarda -dı morfemasini qabul qiladi. Yunon tili ta'sirida kipr turk lahjasi o'zining bilvosita evidensiallik grammatik ko'rsatkichini yo'qotganligi xulosa qilinadi.

Sheva korpuslari nutqni qayta ishlash jarayonida, jumladan, real vaqt rejimidagi kuzatuv tizimlarida so'zlovchilarning mintaqaviy kelib chiqishi yoki etnik mansubligini aniqlash, shuningdek, geografik joylashuvga ko'ra inson ovozi o'zgarishini o'rganuvchi demografik tadqiqotlarda ham qo'llanishi mumkin. Masalan, turk tilining asosiy shevalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotda audio yozuvdagi nutq signalidan aksent belgilarini ajratib olish orqali tergov olib boruvchilarga so'zlovchining kelib chiqishi haqida ma'lumot berilgan. "Ushbu tadqiqotda unli tovushlarning formant chastotalari (F1, F2 va F3) yordamida turk tilidagi aksent tahlili o'tkazildi, statistik va tasniflash kabi ikki yondashuvga asoslanildi. Har ikki yondashuvda ham Turkiya xaritasi shartli ravishda 2 va 3 ta sheva mintaqasiga bo'linib, baholash amalga oshirildi. Jami 112 nafar bir tilli universitet talabasi (72 erkak, 40 ayol) 103 ta ma'noli turkcha bo'g'inni talaffuz qildi. Formant chastotalari jinsga qarab farqlanishi mumkinligi sababli, statistik va tasniflash tahlillarida erkaklar va ayollar alohida baholandi. Natijalar hayratlanarli tarzda shuni ko'rsatdiki, ayniqsa, alohida talaffuz qilingan "e" unlisi O'rta yer dengizi yoki Sharqiy Anadolu mintaqalaridan ekanligi oldindan ma'lum bo'lgan erkak so'zlovchini KNN tasniflagichi yordamida 90% aniqlik bilan aniqlash imkonini berdi" [Y. Korkmaz, B. Aytug, 2022].

Nutqni avtomatik tanib oluvchi ilovalar ham bugun kundalik hayotning turli jabhalari uchun xizmat qiladi va bunday ilovalarni agglyutinativ tuzilishga ega bo'lgan turkiy tillar uchun ishlab chiqish katta qiyinchilik tug'dirmoqda. Shunga qaramay kam resursli turkiy tillar uchun ham bunday tizimlarni avtomatlashtirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirib kelinmoqda va bu borada dialekt bazalarining ham o'rni beqiyos. Turk tadqiqotchilari tomonidan turk tilida nutqni avtomatik tanib olish uchun til modelini integratsiyalash bilan to'ldirilgan chuqur o'rganish modellari taklif qilingan. "Tadqiqot metodlari chuqur o'rganish modellari konvolyutsion neyron tarmoqlar, gated recurrent units(darvozali qaytariluvchi birliklar), long short-term memories(uzoq-qisqa muddatli xotira tarmoqlari) va transformer qatlamlarni o'z ichiga olgan holda shakllantirildi". [Y. Görmez, 2024]

Qozog'istonning turli mintaqalaridan to'plangan dialektal ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qozoq tilining milliy korpusida (qazcorpus.kz) ham dialektal subkorpus mavjud. Unda shimoliy, janubiy, g'arbiy va sharqiy lahjalar namunalari beriladi. Annotatsiya so'z, gap, grammatik belgilanish va POS teglar bilan berilgan. Korpus formati UTF-8 kodlangan matn fayllar va ELAN belgilar tizimidan tashkil topadi (https://qazcorpus.kz/_dialektlik-ishkorpus/indexru.php).

O'zbek tilida yurtimizning har bir hududi shevasi va lahjalari aks etgan dialektologik korpusi hali to'la shakllantirilgan bo'lmas-da, jahon dialektologik korpus tuzish metodologiyasi asosida bir qancha muvaffaqiyatli tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, tadqiqotchi M. Xolova Boysun tuman shevasi asosida <https://dialect.uz/> yaratdi [Холова М. 2022]. Tadqiqotchi A. Turdialiyeu tomonidan Denov tumani shevalarining asosiy xususiyatlari, ularning bir-biriga ta'siri tadqiq qilingan ish yuzasidan ma'lumotlar bazasi shakllantirilib, O'zbek tili korpusining (uzbekcorpus.uz) dialektologik subkorpusiga joylashtirilgan [Turdialiyeu A. 2023]. Bulardan tashqari yurtimizning ko'plab hududlari dialektlari yuzasidan lingvistik tahlil vositalari va foydalanishga tayyor modellar yaratish borasida samarali tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, Xorazm shevasining o'g'uz lahjasiga xos so'z shakllarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar to'plami (dataset) va o'guz shevalari korpusi yordamida shevaga xos leksik birliklarni avtomatik tarzda adabiy ekvivalentlariga almashtirish imkoniyatini beruvchi qoida-asosidagi (rule-oriented) algoritmik yondashuv mavjud. Mualliflar korpusning imkoniyatini quyidagicha ta'riflaydilar: "Korpusning asosiy maqsadi - **turkiy tillarning O'g'uz guruhiga** mansub bo'lgan o'zbek, turkman va ozarbayjon shevalari materiallarini birlashtirish orqali **sheva farqlarini aniqlash, so'z shakllarining variantlarini tahlil qilish** va **dialektologik tadqiqotlar uchun ochiq platforma yaratishdir**". [Abdurakhmonova, N., Astanova, G., Akhmedov, A., Mengliev, D., Ibragimov, B., & Abdullayev, A, 2025] Yuqoridagi yondashuv asosida o'zbek tilining uch asosiy lahjalari lug'ati va algoritmi asosida matnni standartlashtirish masalalari o'rganilgan [Mengliev, D. B., Abdurakhmonova, N. Z., Barakhnin, V. B., Shirinova, R. K., Iskandarova, A. R., & Otemisov, A. Z, 2024]. Ammo bu ishlar barchasi tizimlashtirilishi, yurtimizning har bir hududi areal dialektologik o'rganilishi va ma'lumotlar elektron raqamlashtirilishi uchun mukammal annotatsiyalanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan bizning ishimizda Qarshi shahri hududi va unda istiqomat qiluvchi qarluq lahjasi vakillari nutqidan elektron baza shakllantirib, o'zbek tili milliy korpusining dialektologik subkorpusini boyitish rejalashtirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Dialektal baza shakllantirish empirik metodga tayanadi. Biz Qarshi shahri dialekti yuzasidan quyidagilarni amalga oshirmoqdamiz:

1. Kuzatish - shaharning eski mahallalaridagi aholi nutqi nisbatan keyin tashkil qilingan mahalla va hududlar bilan solishtirilib kuzatuv olib borildi.

2. Ma'lumotlarni yig'ish, suhbat va so'rov orqali amalga oshirildi. Qarshi shahri hududining Naxshab, Navro'z, Zog'za, Xudoyzod, Roguzar, Ko'chkak kabi mahallalarida yashovchi turli yosh guruhlari, asosan keksa vakillaridan 5000 ta so'zli dialektal matnlar to'plandi. Audioyozuvlar yarim strukturali intervyu va erkin suhbat asosida yozib olindi va yosh, jins, kasb, yashash manzili aniqlangan holda metama'lumot shakllantirildi. Sheva egalaridan so'rov asosida ularning kelib chiqish tarixi, muayyan urug'ga tegishli etnik guruh aniqlandi va Qarshi shevasining talaffuz me'yorlari, leksik-grammatik tuzilishlari tahlil qilindi.

3. Transkripsiya – shevaga xos talaffuz me'yorlari maxsus fonetik belgilar yordamida segmentlanadi. Masalan, o'sheqqa so'zi o'sheqqā shaklida (o'sha yoqqa ma'nosi).

4. Teglash – har bir so'z leksik, morfologik va fonetik xususiyatlariga ko'ra maxsus teglarga ajratiladi. Bu jarayonda Universal Dependencies standartlariga yaqin yondashuv qo'llaniladi. Teglash quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

a) manual transcription (ELAN). Audio matnlar dastur yordamida orthografik tier (orfografik qatlam)ga sheva yozuvi kiritiladi. Har bir segmentga vaqt belgisi yoziladi (start/end).

b) normalization/Dialect to Standard mapping - sheva so'zlari mapping jadvaliga muvofiq normallashtiriladi. Shevaning o'ziga xos so'zlari adabiy til bilan muqobil formatda qo'lda tuzib chiqiladi. Masalan, bo'lopti->bo'layapti, bordiyya->bordikda, potiyya to'y->fotiha to'y, o'sheqqa->o'sha yoqqa, hilla->zo'rg'a, yangog'->yong'oq.

c) automatic morphological tagging (UDPipe) - Normalized tierdan olingan matn avtomatik teggerlarga yuboriladi va CoNLL-U formatida qaytariladi: o'sheqqa o'sha_yoqqa PRON_Case=Loc.

5. Ontologik modellash – Protege dasturi yordamida Qarshi shevasining ontologik modeli shakllantiriladi. Bu modelda so'zlarning ma'nosi, adabiy til muqobili, qo'llanish sohasi va fonetik tafovutlari tizimlashtiriladi. Jarayon quyidagicha amalga oshadi:

A) Dialect-aware re-tagging (ontology linking) - avtomatik teglash natijalari dialectal orthografik form bilan qayta bog'lanadi. Ontologik model (Protege) so'z instanslariga "hasStandardForm", "hasDialect", "hasMorph Tag", "hasAudioSegment" kabi xususiyatlar bilan ulanadi.

B) Manual validation - avtomatik natijalar tekshiriladi, qoidalar bo'yicha mos kelmagan holatlar manual tuzatiladi.

Tahlil va natijalar. Qashqadaryo hududi shevalarini ilk bor rus olimi E.D. Polivanov tomonidan tadqiq etilgan. U 1920-37-yillar mobaynida Toshkent, Samarqand, Qarshi shahar shevalarini atroflicha o'rganib bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Qarshi shahri dialekti yuzasidagi ilk tadqiqotlar olim tomonidan ochib berilgan. Hudud shevasi bo'yicha «Образцы несингармонистических (иранизованных) говоров узбекского языка. Каршинский говор» nomli maqolasida ma'lumotlar keltirilgan hamda unda hudud shevasini singarmonizmi bo'lmagan, ya'ni fonetikasini eronlashgan shevalar tahlilga tortilgan [Y. D. Polivanov, 1928]. 1960-yillardan buyon bir qator olimlarimiz, xususan A. Shermatov, S. Ibrohimov, D. Abdurahmonov, T. O'runov, B. Jo'rayev, T. Nafasov, N. Mirzayev, T. Qudratov, T. Enazarov, Q. Xurramov, K. Usmonov, E. Jabborov, X. Jabborov, O. Begimov, K. Markayev, O. O'rino'va, N. Shoimova va boshqalar viloyatning turli hududlari dialektlarini o'z tadqiqotlarida o'rganishgan.

Qarshi shahri shevasi ko'proq fonetik va barcha qarluq lahjalarida kuzatilgani kabi morfologik darajada farq qiladi. Leksik farqlar ayrim so'zlardagina ko'zga tashlanadi. Fonetik o'zgarishga ba'zi misollar:

Unlilar almashinuvi (metateza): orqa<arqa, oyoq<ayoq, qachon<qachan.

Undoshlarning regressiv assimilyatsiyasi: yong'oq<yangog'.

Yondosh undoshlar assimilyatsiyasi: boryapman<boromman.

Zamon va shaxs-son qo'shimchasi o'zakka qo'shilganda progressiv assimilyatsiya: keldi<kelli.

Tovush tushishi va palatalizatsiya natijasida yuzaga kelgan fonetik o'zgarish: keldik<keldiy kabi.

Morfologik o'zgarishlar:

-lar affiksi: bolalar<balala/bachala

Kelishiklarda: qaratqich kelishigi -ning unlidan so'ng -ni, undoshdan so'ng -di,-ti, jo'nalish kelishigi -ga unlidan so'ng -ya shaklida: onamlarga<onamlaya. O'rin payt kelishigi ko'pincha jo'nalish kelishigi bilan almashtirib qo'llanadi.

Leksik o'zgarishlar:

Hilla<zo'rg'a, halay-bulay<uncha-muncha, bohorom bo'l<ehtiyot bo'l, to'ppa osh<ugra osh, nomurodgina<beozor, yuvosh kabi.

Quyida yuqoridagi korpus tuzish metodologiyasiga asoslanib Qarshi shahri shevasidagi ayrim materiallarni korpus uchun shakllantiriluvchi lingvistik baza ko‘rinishida beramiz:

t/r	Adabiy tilda	Shevada (talaffuzi)	Transkripsi yasi	Lahjasi	Metama'lumoti			
					Yashash manzili	Yoshi va jinsi	Ma'lumoti, kasbi	Urug'i
1	to'y	tuy	tuj	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi
2	kuyov	kiyov	kijāv	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi
3	davrida	dovriya	dāvrijā	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi
4	kelardik	keleydiy	kelejdi	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi
5	beozor, yuvosh	nomurodgina	nāmūrādgīn ā	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi
6	zo'rg'a, arang	hilla	hilla	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi
7	chiqibdi	chig'ibti	čiyibti	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi
8	keldi	kelli	kelli	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi
9	shunday qilib, shu tariqa	o'shanoq qilib	ošānāq qilib	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi
10	og'zim	ovzim	āvzim	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi
11	oyog'imdan	ayog'imdan	ājāyimdān	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi
12	bola	bala	bālā	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi
13	yong'oq	yangog'	jāṅāy	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi
14	obchiqyaptilar	opchig'optila	āpčiyāptilā	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi

15	der edi-da	diychiydida	dijčijdidä	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi
16	boshqa	bashqa	bäšqä	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi
17	lagan	lag'li	läyli	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi
18	nima qilyapsan	nima qilopsandi	nimä qiläpsändi	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi
19	ahmoq, laqma	garang	gäränj	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi
20	uy	o'y	oj	qarluq	Qarshi sh., Chaqar mahallasi	54 yosh, ayol	o'rta, nonvoy	kaltato'pi

Xulosa. Barcha turkiy tillar kabi o'zbek tilini ham bugungi globallashuv zamonida bor ichki imkoniyatlarini ishga solgan holda asrab qolish dolzarb masaladir. Bu jihatdan yuqoridagi metodologiyalarga asoslangan holda dialektologik korpus tuzish milliy tilning qadimiy ildizlarini asrash, adabiy tilni boyitish hamda turli zamonaviy dasturiy ta'minotlar uchun asos vazifasini bajaradi. Yurtimizning har bir hududi, xususan Qarshi shahri shevasini korpusda aks ettirishda dialektdagi fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarini inobatga olish, transkripsiyalashda yangi ishlab chiqilgan milliy transkripsiyadan foydalanish, sheva va adabiy tildagi leksik farqlarning izchil lug'atini yaratish va morfologik teglash bosqichida avtomatik dasturlardan foydalanish tadqiqotimizning xulosasini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmonova N.Z. Korpus lingvistikasi. Darslik. GlobeEdit, 2023
2. Wolk C, & Szmrecsanyi B. 2018. Probabilistic corpus-based dialectometry. Journal of Linguistic Geography 6(1). 56–75. doi: 10.1017/jlg.2018.6.
3. Kuparinen O, Scherrer Y. Corpus-based dialectometry with topic models, May 2024. Journal of Linguistic Geography 12(1):1-12
4. Khakimov B, Galieva A and Gatiatullin A. To the problem of unification of the annotation systems of grammatical categories in the corpora of Turkic languages. Proceedings of the International Conference on Turkic Language Processing (TURKLANG-2014) (pp. 131-135). Istanbul: Özkaran Matbaacılık-Bağcılar
5. Khakimov B, Salimov F, Ramazanva D. Building Dialectological Corpora for Turkic Languages: Mishar Dialect of Tatar July 2015, Procedia - Social and Behavioral Sciences 198:218-225
6. Korkmaz Y, Aytug B, A comprehensive Turkish accent/dialect recognition system using acoustic perceptual formants. May 2022 Applied Acoustics 193(107528):108761
7. Görmez Y. Customized deep learning based Turkish automatic speech recognition system supported by language model. PeerJ Computer Science April 2024 10:e1981
8. Işık E.E, Simsek C.S. A corpus-based study of evidentials in the Turkish Cypriot dialect. October 2019 Lingua 231:102743
9. Холова М. Ўзбек миллий шевалари корпуси тадқиқи (Бойсун тумани “ж”ловчи шевалари мисолида). Монография, – Термиз: ТерДУ НММ, 2022.
10. Turdialiyev A.X. Denov shevalarini areal o'rganish va til korpusiga joylashtirish. Filologiya bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2023

11. D.B. Mengliev, N. Abdurakhmonova, D. Hayitbayeva, V.B. Barakhnin. Automating the Transition from Dialectal to Literary Forms in Uzbek Language Texts: An Algorithmic Perspective 2023 IEEE XVI International Scientific and Technical Conference Actual Problems of Electronic Instrument Engineering (APEIE), Novosibirsk, Russian Federation (2023), pp. 1440-1443
12. Mengliev, D. B., Abdurakhmonova, N. Z., Barakhnin, V. B., Shirinova, R. K., Iskandarova, A. R., & Otemisov, A. Z. (2024, June). Building a comprehensive Uzbek lexicon: bridging dialects for text standardization. In 2024 IEEE 25th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM)(pp. 2440-2444). IEEE.
13. Abdurakhmonova, N., Astanova, G., Akhmedov, A., Mengliev, D., Ibragimov, B., & Abdullayev, A. (2025). Development of a Lexical Dataset and a Rule-Based Algorithm for the Analysis of Khorezm Dialects of the Uzbek Language. *Data in Brief*, 112216.
14. Mengliev, D., Abdurakhmonova, N., Kholmurodova, I., Ibragimov, B., Latipova, G., & Kadirova, Z. (2025, October). Bridging dialectal variations in Uzbek texts: A comparative evaluation of modern approaches. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3377, No. 1, p. 070001). AIP Publishing LLC.
15. Поливанов Е.Д. Образцы не-сингармонистических (иранизованных) говоров узбекского языка // Докл. АН СССР, [Серия] В. — Л., 1928.: № 5, С. 92—96 [I. Каршинский говор (город Бербуди)]



ISSN 2181-9297

Doi Journal 10.26739/2181-9297

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000